



FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIB OLIHDAN BO'SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH

Xudaynazarov Taxirjon Maxmudjanovich

TDTU magistranti

Ergashev Mahmud Axbaraliyevich

TDTU Olmaliq filiali assistenti

O'ralboyeva Dildora Farhod qizi

TDTU Olmaliq filiali talabasi

Annotatsiya: *Konchilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmog'i bo'lib, tarmoqning rivojlanishi iqtisodiyotning, xomashyo bazasining oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida konchilik sanoatini rivojlantirish uchun har qanday sharoitda va har qanday zamonda ham yuqori ish unumdorligini, optimal texnika-tajribaviy ishlar olib borishni, yangi texnika-texnologiya yutuqlaridan soha amaliyotida ratsional foydalanishni talab etadi. Xuddi shuningdek ochiq konchilik ishlarini olib borish natijasida hosil bo'lgan katta yer maydonlari kon ishlari tugatilganidan keyin xalq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatiga qaytarilishi chora-tadbirlari ko'rilishi lozim. Ana shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayoni kon maydonini rekultivatsiya qilishdir.*

Kalit so'zlar: *rekultivatsiya obyektlari, noan'anaviy relyef shakllari o'zgartirilgan geotizimlar, muhandislik tizimlari, texnogen faoliyat, agromeliorativ tadbirlar, fitomeliorativ tadbirlar.*

Foydali qazilmalarni ochiq usulda yer qa'ridan qazib olish natijasida katta maydondagi unumdor yerlar qishloq xo'jalik oborotidan chiqarilishi bilan bir qatorda, karyerda olib boriladigan kon qazish jarayonlari atrof-muhit ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli foydali qazilmani qazib olish natijasida buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish zarurati tug'iladi.

Rekultivatsiya – bu buzilgan yerlarni xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun yaroqli bo'lishini ta'minlash maqsadida bajariladigan turli ishlar majmuidir.

Biroq rekultivatsiya hamma vaqt ham buzilgan yerlarni o'zining dastlabki holatiga keltira olmaydi va iqtisodiy tomondan unga qilingan xarajatlarni qoplay olmaydi. Rekultivatsiya natijasida qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, dam olish zonalari, suv omborlari, turar joy va sanoat ishlab chiqarish binolari qurish kabi ishlarga yaroqli yerlar hosil qilinadi.

Qaysi maqsadlarda foydalanishga mo'ljallanganligiga ko'ra karyer tomonidan buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish quyidagi ko'rinishlarda bajarilishi mumkin:

1. Qishloq xo'jaligiga tegishli, ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish, bog'lar, o'tloqlar barpo qilishga yaroqli yerlar hosil qilish;



2. O'rmon xo'jaligiga tegishli zamin, suv, ob-havo mo'tadilligini muhofaza qilish, shuningdek, ishga yaroqli yog'och materiallari ishlab chiqarish uchun o'rmonzorlar barpo etishga yaroqli yerlarni vujudga keltirish;

3. Tabiat muhofazasiga tegishli, atrof-muhitni zararlantiruvchi ag'darmalarni ko'kalamzorga aylantirish, dam olish zonalarini barpo qilish;

4. Suv xo'jaligiga tegishli, ya'ni baliqchilik va boshqa ishlab chiqarish sohalari uchun suv omborlari barpo qilish;

5. Qurilishga tegishli turar joy, sanoat va sport inshootlarini qurish uchun yer tayyorlash.

Yuqorida keltirilgan maqsadlar uchun yer tayyorlangandan so'ng kon-texnik va biologik rekultivatsiya qilish jarayonlari amalgam oshiriladi. Kon-texnik rekultivatsiya qilishda ag'darmalar tekislanib, qiyaliklar yassilanadi, ustiga hosildor qatlam barpo etish uchun tuproq yotqiziladi, shuningdek, meliorativ va yo'l qurilishi ishlari bajariladi. Biologik rekultivatsiya esa, kon-texnik rekultivatsiya tugagandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda yerning hosildorligini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan biologik jarayonlar bajariladi. Maydonlarni rekultivatsiya qilishda skreperlar, buldozerlar, ekskavatorlar, avtoag'dargichlar va boshqa mexanizmlardan foydalaniladi.

Rekultivatsiya obyektlari sifatida quyidagilar ko'riladi:

- kon qazish ishlari natijasida buzilgan yerlar, ya'ni o'simlik va tuproq qoplami, gidrografik tarmog'i o'zgargan yoki butunlay vayron bo'lgan, relyefi o'zgargan va hokazo hududlar;

- ifloslangan yerlar, bu yerlarda antropogen faollik tufayli biofauna uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan moddalarning tarkibi o'zgargan.

Buzilgan yerlarga metall bo'lmagan qurilish materiallari va torf ochiq usulda qazib olinadigan hududlar kiradi, buning natijasida noan'anaviy relyef shakllari shakllanadi.

Kontseptual jihatdan buzilgan yerlarning rekultivatsiyasi quyidagi asosiy qoidalar bilan ifodalanishi mumkin:

- o'zgartirilgan geotizimlardagi tabiiy komponentlarning o'zgarishini o'rganish va meliorativ davrda geologik va biologik jarayonlarni boshqarish usullarini ishlab chiqish maqsadida buzilgan yerlar evolyutsiyasini tahlil qilish;

- buzilgan yerlardan foydalanish yo'nalishini asoslash uchun tabiiy, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni tahlil qilish;

- buzilgan yerlarning ayrim turlarining meliorativ holatini yaxshilash usullarini ishlab chiqish, tabiiy geotizimlar faoliyatini optimallashtirish uchun maxsus muhandislik va ekologik tizimlarni yaratish.

Xulosa qilib aytganda, rekultivatsiya jarayoni konchilik ishlarini olib borishning yakuniy bosqichi hisoblanib, ushbu jarayonni amalga oshirish tashkiliy-texnik va ekologik jihatdan muhim va ahamiyatlidir. Chunki kon ishlarini olib borish natijasida hosil bo'lgan chuqurliklar na ekin maydoni sifatida foydalanishga, na chorvachilik



uchun yaylovlar sifatida foydalanishga va boshqa shu kabi maqsadlarda foydalanishga yaroqli bo'lmaydi. Buning uchun buzilgan yer maydonlarida tuproqlash, radioaktiv ta'sirlarni so'ndirish kabi texnik-tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Ana shu kabi chora tadbirlar jamlanmasi rekultivatsiya jarayonining asosiy maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chemezov V.V., Kovrijnikov V.L. "Zemlopolzovanie I rekultivatsiya narushennix zemel pri razrabotke mestorojdeniy zolota i almazov" Irkutsk 2007 g.
2. Vremennaya instruktsiya po rekultivatsii zemel, narushennix pri razrabotke mnogoletnemerzlix rossipey Severo-Vostoka SSSR. Magadan 1990 g.
3. МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ ГОРНЫХ ПОРОД (<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/1885/1792>)
4. YOSHLIK 1 KONIDA SKVAJINA ZARYADI KONSTRUKSIYASI-NING MAQBUL TURINI TANLASH VA ASOSLASH (<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1894>)
5. Муталова М. А., Хасанов А. А. Разработка технологии извлечения вольфрама из отвальных хвостов НПО АО «Алмалыкский ГМК» //Universum: технические науки. – 2019. – №. 12-1 (69).
6. Хасанов, А. А., Гоибназаров, Б. А., Баратов, С. А., & Абдусаматова, М. А. (2022). Исследование Химического И Минералогического Составов Лежалых Хвостов Ингичкинской Обогачительной Фабрики. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(5), 362-370.
7. Хасанов, А. С., Хасанов, А. А., & Муталова, М. А. (2020). Разработка рациональной технологии извлечения вольфрамового промпродукта содержащего не ниже 40% WO₃ из отвальных кеков НПО АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат». Композиционные материалы, (4), 144-148.
8. Д. М. Курбанбаев, С. И. Эркабаева, И. М. Рахматуллаев, & А. У.Ахмадов. (2022). ВИДЫ, СВОЙСТВА И ОТРАСЛИ ПРИМЕНЕНИЕ ИЗВЕСТНЯКОВ. Uzbek Scholar Journal, 11, 28-32. Retrieved (<https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/437>)
9. Шамаев, М. К. ., Ахмадов, А. У. ., Рахматуллаев, И. М. ., & Тоштемиров, У. Т. . (2022). ИЗВЕСТНЯК В ПРИРОДЕ, ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА И НЕКОТОРЫЕ ИХ СВОЙСТВА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ. ARHITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 1(4), 26-30. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4911>
10. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли, Кулмонбетов Асадбек Юсуфали ўғли. КОНТУРНОЕ ВЗРЫВНИЕ ПРИ ПОДЗЕМНЫХ ГОРНЫХ РАБОТ. Журнал «Новости образования: исследование в XXI Том 1 № 4 (2022). <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1321>



11. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. Искандар Махмуд ўғли Рахматуллаев

12. Разработка эффективный способа буровзрывных работ обеспечивающий проектный сечения горизонтальных подземных горных выработок (pp. 63-67). <https://caajsr.uz/storage/app/media/2-3.%20012.%2063-67.pdf>

13. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли. Напряженное Состояние Горного Массива И Факторы, Влияющие На Механические Свойства Горных Пород. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES 2022/6. 65-69 ст. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/612>

14. Регулирование режима горных работ и экономические показатели планирования Б.Ш. Шакаров, И.М. Рахматуллаев - Uz ACADEMIA, 2021.